

FOIZGA QARZ BERISH BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNING IJTIMOYIY XAVFI VA ULARNING OLDINI OLISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH



Isamiddin Ismailov

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
yuridik fanlari doktori, professor



Ulug‘bek Irisbekov

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti,
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Maqolada sudxo‘rlikning ijtimoiy xavfi va uning jinoyat sodir etilishini taqozo etuvchi asosiy omil ekanligi asoslanib, uni kriminologik tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilishiga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan, shuningdek uning bugungi kundagi o‘ziga xos xususiyatlari va oldini olish zarurati hamda choralari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sudxo‘rlik, tovlamachilik, firibgarlik, qonun, ma‘muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik, jazo.

Аннотация. В статье анализируются научные подходы к изучению ростовщичества как объекта криминологических исследований, исходя его из социальной опасности и важнейшего фактора, обуславливающего совершение преступлений, а также рассматриваются его современные особенности и меры по профилактике.

Ключевые слова: ростовщичество, преступление, вымогательство, мошенничество, закон, административная ответственность, уголовная ответственность, наказание.

Abstract. The article analyzes scientific approaches to studying usury as an object of criminological research, based on the social danger of usury and its role as a major factor in the commission of crimes, as well as its current specific features and the need for and measures to prevent it.

Key words: usury, extortion, fraud, law, administrative responsibility, criminal responsibility, punishment.

Ilmiy manbalarda sudxo‘rlik ijtimoiy-iqtisodiy ekspluatatsiya shakli sifatida baholanadi. Sudxo‘rlik bilan shug‘ullanuvchilar asosan iqtisodiy nochor ahvolga tushib qolganlar, tajribasizligi tufayli faoliyati to‘xtab qolmasligi kerak bo‘lgan tadbirkorlar, shuningdek muayyan bir favqulodda vaziyat sababli mablag‘ga muhtoj bo‘lib qolgan shaxslar hisobiga boyishni maqsad qiladi.

Sudxo‘rlik – g‘oyat og‘ir shartlarda qarz berib, foyda olinadigan faoliyat va bu barcha dinlarda qoralangan. Xalqimizning asosiy qismi e‘tiqod qiladigan islom dinida “ribo”, ya‘ni sudxo‘rlik taqiqlanib, gunohi azim hisoblansa-da [1], bugungi kunda bunday faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar ko‘payib bormoqda, shuningdek mazkur faoliyat yakka tadbirkorlik sifatida rasman ruxsat etilmagan

bo'lsa-da, amaldagi qonunchilikda bunday qilmish uchun javobgarlik nazarda tutilmagan.

Foiz hisobiga qarz berishning ijtimoiy xavfi nafaqat amaldagi qonunchilik talablariga rioya etmaslik, iqtisodiy jihatdan og'ir ahvolga tushib qolgan shaxslar hisobiga boyish, balki sudxo'rlik bilan shug'ullanuvchi shaxsning bevosita olgan qarzi va foizini o'z vaqtida to'lay olmaganlarga nisbatan turli shaklda tazyiq va zo'ravonlik o'tkazish, aksariyat holda esa tovlamachilik, firibgarlik, shaxs hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlar sodir etilishi sabablar zanjirining asosiy halqasi bo'lib qolayotganligida namoyon bo'lmoqda.

O'zini qonundan ustun qo'ygan, tadbirkorlarga bosim qilib, ularning biznesini egallab olishga harakat qilayotgan, iqtisodiyotimizga jiddiy putur yetkazayotgan, murakkab moliyaviy jinoyatlar sodir etayotganlar, o'zini "qozi" deb hisoblagan, odamlar o'rtasida oldi-berdi masalalarni hal qilib berayotgan ayrim jinoiy to'dalar ham paydo bo'lyapti. Eng achiqarlisi, oson pul topaman degan ilinjda bo'lgan bilagida kuchi bor ayrim sportchilar ham bunday jinoiy to'dalarga qo'shilib qolgani bizni xavotirga solyapti. Yana bir yomon jihati, O'zbekiston fuqarolaridan iborat jinoiy guruhlar ayrim chet davlatlarda ham mavjudligi yurtimizning xalqaro obro'yiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hamma eshitib olsin, bunday jinoiy to'dalar faoliyatiga chek qo'yishga kuchimiz ham, qudratimiz ham yetadi, bunga yo'l qo'ymaymiz va bunga yo'l qo'ymaslik uchun butun jamiyatimiz bilan albatta kurashamiz [2].

Jinoyat, xususan, tovlamachilik sodir etilishi sabab va sharoitlari zanjirida asosiy halqa sifatida ko'payib borayotgan foyda olish (foiz hisobida) maqsadida norasmiy ravishda qarz berish holatlarining, ya'ni "sudxo'rlik"ni oldini olishning kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, sudxo'rlikning ijtimoiy xavfi, qonunchilik bilan uni yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati sifatida ruxsat etilishi, qarzni foiz hisobiga berishda amaldagi qonun talablarini buzish uchun javobgarlik belgilash masalasida yagona yondashuv yo'q.

Rossiyalik kriminologlar N.F. Kuznetsova sudxo'rlikni "iqtisodiy tengsizlikka asoslangan, shaxs irodasini moliyaviy bosim orqali sindirishga

qaratilgan jinoiy faoliyat" [3] sifatida ta'riflasa, V.N. Kudryavsev iqtisodiy majburiyatlar sun'iy ravishda og'irlashtirilgan hollarda esa jinoiy majburlash vujudga keladi [4], degan fikrni ilgari suradi.

Mazkur jarayonlar, *birinchidan*, haqiqiy imkoniyatdan ancha yuqori foizlar belgilash orqali qarzorni qasddan qarz botqog'iga kiritish orqali iqtisodiy adolat tamoyillarini buzib, kambag'allikni va tabaqalanishni yanada chuqurlashtirib, jamiyatda ijtimoiy keskinlikni oshirsa, *ikkinchidan*, sudhuquq amaliyoti tasdiqlayotganidek, qo'rqitish, tahdid, mulkni tortib olish bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlar shakllanishi va jinoyat sodir etilishining mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Kriminolog olim A.I. Dolgova ta'kidlaganidek, sudxo'rlik uyushgan jinoyatchilikning "iqtisodiy tayanch mexanizmlaridan biri" hisoblanadi [5]. Sudhuquq amaliyoti ko'rsatayotganidek, sudxo'rlik yakka shaxs tomonidan amalga oshirilayotgandek bo'lsa-da, lekin uning mazkur faoliyatdan "yuqori foyda olish va zarar ko'rmaslikni" ta'minlash maqsadida guruh tarkibida muayyan vazifalarni bajaruvchilar jalb etilgan bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki [6], aksariyat holatlarda jismonan baquvvat yollangan shaxslar tomonidan vaqtida qaytarilmayotgan qarzni olishda tahdid bilan qo'rqitish, ruhiy va jismoniy zo'ravonlik qo'llaniladi, bu esa firibgarlik, tovlamachilik, shuningdek zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning ko'payishiga olib kelmoqda.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, sudxo'rlik omillari: foiz stavkasi juda yuqori kreditlar paydo bo'lishi va ularning ijtimoiy ta'siri [7]; iqtisodiy ahvol va bozor mexanizmlari [8]; ijtimoiy psixologiya va iqtisodiy muhit [9]; sudxo'rlikni iqtisodiy va huquqiy boshqarish [10]; qarz foizini iqtisod, axloq, din nuqtani nazari [11] kabi hodisa va jarayonlar bilan bog'liq holda tadqiq etilgan.

Foiz stavkasi juda yuqori kreditlar paydo bo'lishi va ularning ijtimoiy ta'siri tadqiq etilgan ilmiy manbada: qarz oluvchilar vujudga kelgan ehtiyojidan kelib chiqib qaror qabul qilishi, ya'ni kelgusida foiz to'lovlari va qarzni qaytarish majburiyatini to'liq baholay olmasligini; ayrim tajribasiz qarz oluvchilar tomonidan kelajakda yana qarz olishi ehtimoli yo'q yoki kamroq deb hisoblashi; qarz oluvchilarning qarzdan qutulishni oson deb baholashi; qarz oluvchining o'zini o'zi nazorat qilishdagi qiyinchilik

va to'siqlar mavjudligi sudxo'rlikni oziqlantiruvchi omillar sifatida ko'rsatilgan [12].

Tadqiqotlarda iqtisodiy ahvol va bozor mexanizmlari bilan bog'liq omillar sifatida: odamlar daromadining pastligi, ehtiyojlari uchun bankdan va oddiy qarz olish imkoniyatining yo'qligi; qarz olishning odatiy holatga aylanishi; bankdan qarz olish tarixi salbiyligi va moliyaviy resurslar yo'qligi sababli rad etilishi; ayrim toifadagi shaxslarda sog'lig'i, oilaviy nochorligi, ishsizligi va boshqa favqulodda holatlar vujudga kelganda naqd pulga muhtojlik; qarz berish shartlari og'irligi va o'zgar-masligi hamda foiz to'lovlari davrining qisqaligi; foizga qarz berish faoliyatini rasmiy nazorat va jazolash mexanizmlarining samarasizligi kabilar e'tirof etiladi [13].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilmagan holda foizga qarz berish, ya'ni "sudxo'rlik" uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan bo'lsa-da, uning bilan bog'liq holda o'zganing mulkini tovlamachilik, firibgarlik yo'li bilan talon-toraj qilish, ayrim holatlarda zo'ravonlikka asoslangan shaxs hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlar sodir etilishiga zamin yaratmoqda. Shuni ta'kidlash joizki "...qayerda hayot yaxshilansa, daromad ko'paysa, o'sha yerda "yengil pul topish" harakatida bo'lgan jinoiy tuzilmalar ham faollashib, jinoyatning yangi usul va vositalari ham, eng avvalo, shu yerda paydo bo'ladi" [14].

Hayotda, *birinchidan*, naqd pulga bo'lgan ehtiyojining oshib borayotganligi, *ikkinchidan*, kredit beruvchi muassasalarning bu sohadagi faoliyatida rasmiyatchilik (qog'ozbozlik)ning mavjudligi, *uchinchidan*, jismoniy shaxslar tomonidan kredit berish faoliyati bilan shug'ullanish qonuniy tartibga solinmaganligi oqibatida jamiyatda muayyan foyda (foiz) hisobiga qarz berish – "sudxo'rlik" faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar tomonidan turli xil jinoiy, shu jumladan, tovlamachilik sodir etilayotganligi kuzatilmoqda [15].

O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda foizga qarz berib "daromad" olishni ayrim toifa shaxslar kasbiga aylantirib olishgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksning 2-qismi 734-moddasida qarz beruvchi (yuridik shaxs yoki fuqaro) qarz oluvchidan qarz summasiga shartnomada belgilangan miqdorda va tartibda foizlar

olish huquqiga egaligi, shuningdek foizlar to'lash tartibi va muddatlari qarz shartnomasi bilan belgilanishi, agar foizlar to'lash tartibi va muddatlari shartnomada belgilangan bo'lmasa, ular asosiy qarzni qaytarish uchun shartnomada nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda to'lanishi ko'rsatilgan [16]. Lekin hayotda jismoniy shaxslar tomonidan foizga qarz berish bo'yicha bunday shartnomalar tuzish va qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirish amaliyoti juda ham kam uchraydi. Chunki O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksning 375-moddasiga muvofiq foizlar mulkiy daromadning bir turi sifatida belgilangan bo'lib, undan olingan foydadan soliq to'lanishi talab etiladi [17].

Tadqiqotlar va huquqni qo'llash amaliyoti tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, shartnoma rasmiylashtirmasdan foizga qarz berib, foyda olayotgan shaxslar tomonidan hech qanday soliq to'lamasdan qonunchilik bilan tartibga solinmagan holda foizga qarz berish orqali daromad olish, *birinchidan*, xufiyona iqtisodiyotni kuchaytirsa, *ikkinchidan*, qarz bergan va qarz olgan shaxslar o'rtasida nizolarni keltirib chiqaradi, *uchinchidan*, o'zboshimchalik, tovlamachilik, firibgarlik, shaxs hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlar sodir etilishining asosiy omillaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shuni alohida qayd etish joizki, foizga qarz berish va uni qaytarib olish bilan bog'liq jinoyatlarni sudda ko'rish jarayonida malakalash bilan bog'liq masalalarga oid O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 1998-yil 17-apreldagi qarorining 12-bandida:

birinchidan, tovlamachilik nafaqat fuqarolarning, tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini qo'pol buzuvchi, balki iqtisodiyot sohasida ham katta zarar keltiruvchi jinoyat bo'lib, jiddiy ijtimoiy xavf tug'dirishi;

ikkinchidan, qonunga binoan (JKning 165-moddasi) tovlamachilik o'zganing mulkini yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni taqozo qilishi;

uchinchidan, qarzdordan qarzni talab qilish Jinoyat kodeksining 165-moddasi bilan tavsiflanishi mumkin emasligi, lekin ayrim hollarda o'zboshimchalik (JKning 229-moddasi) tariqasida baholanishi lozimligi;

to'rtinchidan, qarzidor va qarz beruvchi o'rtasida foizlar to'lash bo'yicha oldindan kelishuv bo'lmagan bo'lsa, berilgan qarz uchun foiz talab qilish tovlamachilik jinoyati tarkibini tashkil qilishi qayd etilgan [18].

Tadqiqotlar, tergov-sud amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, *birinchidan*, jismoniy shaxslar o'rtasida "foizga qarz" olish va berish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar to'liq huquqiy tartibga solinmaganligi, *ikkinchidan*, bunday tarzda qarz olgan shaxslar tomonidan olgan qarzni turli ob'ektiv va subyektiv sabablar tufayli vaqtida qaytarib bera olmayotganligi, *uchinchidan*, bergan "qarzi va uning foizi"ni qaytarib olmayotganligi oqibatida qarz bergan va qarz olgan shaxslar o'rtasida nizolar vujudga kelmoqda.

Qonunchilikda bunday mulkiy nizolar sud tartibida ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan bo'lsa-da, lekin qarz berish va olish bo'yicha shartnoma rasmiylashtirilmaganligi, da'vogar sifatida sudga murojaat qilishi kerak bo'lgan qarz bergan shaxsning faoliyati noqonuniyligi sababli sudga murojaat qilinmaydi.

Shuning uchun ham hayotda bunday nizolarni o'z foydasiga hal etish uchun "foizga qarz" beruvchilar boshqa shaxslarga, jumladan jinoiy olam vakillariga, shuningdek, jismoniy kuch ishlatish va zo'ravonlik qilishga moyil shaxslarga murojaat qilishga yoki ularning "pullik xizmati"dan foydalanishga harakat qiladilar [6].

Xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi normalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bir qator, xususan, Armaniston (213-m), Rossiya (171-m), Germaniya (291-m), Italiya (644-m), AQSH (RICO Act), Portugaliya (226-m), Polsha (304-m), Shvetsiya (5-m, 9-bob), Daniya (282-m), Shveysariya (157-m), Latviya (201-m) kabi mamlakatlarda sudxo'rlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Shuni alohida qayd etish joizki, ijtimoiy hayotning muayyan sohalarida va ayrim hududlarda foizga qarz berish bilan bog'liq tovlamachilik, firibgarlik va boshqa jinoyatlar sodir etilishini taqozo etuvchi omillarning oldini olish, shuningdek, mazkur jinoiy qilmishlarni o'z vaqtida aniqlash, *birinchidan*, bu sohalaridagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni, *ikkinchidan*, ularning oqibati sifatida shakllanadigan ijtimoiy-kriminogen xususiyatga ega bo'lgan nizoli vaziyatlarning

oldini olish, *uchinchidan*, sodir etilish ehtimoli yuqori bo'lgan jinoiy qilmishlar, shu jumladan, tovlamachiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun mas'ul bo'lgan ichki ishlar organlarining tezkor-qidiruv xizmatlarini mazkur yo'nalishda ixtisoslashtirishni talab etadi.

Jamiyatda, uning sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi samaradorligini oshirishda mahallalar, jumladan "mahalla yettiligi" faoliyatini, shuningdek qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, qonunbuzilishi holatlari uchun javobgarlikni belgilash orqali huquqbuzarliklar, jinoyatlarning oldini olish borasida amaldagi qonunchilik normalarni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb talabidir.

Foizga qarz berish bilan bog'liq nizolar va ularning oqibatida sodir etiladigan huquqbuzarlik, shu jumladan jinoyatlarning oldini olish maqsadida:

mahallaga biriktirilgan bank xodimlarini jalb etgan holda qarz munosabatlari bo'yicha huquqiy maslahat beruvchi guruhlar faoliyat ko'rsatishini tashkil etish;

"mahalla yettiligi" va mahalla faollarida qarz berish va qaytarib olishda sodir etilayotgan huquqbuzarliklar, xususan, "iqtisodiy tazyiq", "ruhiy tazyiq", "jismoniy zo'ravonlik", "tovlamachilik", "firibgarlik" kabi jinoyatlarning belgilari hamda mazkur qilmishlar uchun javobgarlik mavjudligi haqida bilimlarni shakllantirishga qaratilgan maxsus o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish;

"mahalla yettiligi", shuningdek mahalla faollari tomonidan foizga qarz berish va qarz olish bilan bog'liq munosabatlar ishtirokchilari bo'lgan xavf guruhlarini aniqlash hamda ular bilan yakka tartibda ogohlantiruv-profilaktik suhbatlarni o'tkazishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar, flayerlar tayyorlash.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, ayniqsa, yakka tartibda tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun keng shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 19 bilan yakka tartibda tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati tasdiqlangan, lekin unda foizga qarz berish xizmatini ko'rsatish nazarda tutilmagan.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining "qarz beruvchi (yuridik shaxs yoki fuqaro) qarz oluvchidan qarz summasiga shartnomada belgilangan miqdorda va tartibda foizlar olish huquqiga egaligi" haqidagi normasini amalda qo'llash uchun huquqiy mexanizmlarni yaratish, shuningdek mazkur huquqni amalga oshirish natijasida olgan foydadan soliq to'lashni ta'minlash maqsadida "foizga qarz berishni" yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritish taklif etiladi. Albatta, "foizga qarz berishni" yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat sifatida amalga oshirish muayyan talablar asosida olib borilishini huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, bugungi kunda "foizga qarz berish" faoliyati bilan amaldagi qonunchilik hujjatlari zid ravishda va belgilangan talablarga rioya etmagan holda shug'ullanganlikning, fuqarolar o'rtasida nizolar kelib chiqishining, shuningdek uning oqibatida jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida bunday noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanganlik uchun javobgarlikni belgilash taqozo etilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksni ikki qismdan iborat qarz berish tartibiga oid qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi modda bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Mazkur moddaning birinchi qismida qarz shartnomasini tuzmasdan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ortiq pulni yoki ashyolarni foyda olish maqsadida kelishilgan muddatlarda muayyan foizini to'lab borish yoxud aniq bir muddatda foizi bilan qaytarish sharti asosida qarzga berganlik, uning ikkinchi qismida esa xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasini qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilganligi uchun jazo belgilash maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga jismoniy shaxs tomonidan qarz shartnomasini tuzmasdan, shaxsning og'ir moddiy ahvolidan, ojizligidan yoki tajribasizligidan foydalanib, bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ortiq pulni yoki ashyolarni qonunchilikda belgilangan eng yuqori foiz stavkasidan, ya'ni Markaziy bank qayta moliyalash stavkasidan ikki

va undan ortiq barobar yuqori bo'lgan foizlar yoki boshqa turdagi og'ir shartlar asosida pul mablag'ini foiz evaziga litsenziyasiz qarz berish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi modda bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Mazkur moddaning ikkinchi qismida o'sha harakatlar tizimli ravishda, mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni topshirishni asossiz ravishda talab qilish, shuningdek mulkdorning mulkini olib qo'yish yoxud uni o'z mol-mulkiga bo'lgan huquqidan voz kechishga oid shartlar qo'yish, uy-joy, transport vositasini yoki boshqa mol-mulkni majburan garov sifatida olish, zo'ravonlik, tahdid va garovni tortib olish orqali sodir etilsa, talon-toroj alomatlar mavjud bo'lmagan taqdirda esa og'irroq jazo belgilashni nazarda tutish zarur.

Shuningdek, bunday harakatlarning: takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan; juda ko'p miqdorda foyda olish maqsadida; axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib; uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab; jabrlanuvchining yagona turar joyidan mahrum bo'lishiga yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan holda sodir etilishi mazkur moddaning uchinchi qismida alohida og'irlashtiruvchi holat sifatida ko'rsatilib, ikkinchi qismda belgilangan jazodan og'irroq jazoni nazarda tutish kerak.

Shuni alohida qayd etish joizki, agar mazkur qilmishni sodir etgan shaxs yetkazilgan moddiy zararni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmasligi, shuningdek sudxo'rlikni fosh qilgan qarz oluvchining jinoiy javobgarlikdan to'liq ozod etilishini va foizlarni qaytarish majburiyati tugatilishini nazarda tutuvchi rag'batlantiruvchi normalar ham kiritilishi maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda foiz hisobiga sudxo'rlik ijtimoiy xavfli qilmish tarzida iqtisodiy erkinlikni cheklash, aholining zaif qatlamlarini qaram qilish orqali jamiyatda ijtimoiy adolatga ishonchni yo'qotish, shuningdek bir qator jinoyatlarni, ayniqsa, tovlamachilik sodir etilishini taqozo etuvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sudxo'rlikning sodir etilishini taqozo etuvchi subyektiv omillar kelib chiqishi manbai bo'yicha qarz beruvchiga xos kriminogen va qarz oluvchiga xos viktimogen xususiyatlarga ega bo'lib,

shuningdek, jamiyatda ular o'rtasidagi munosabatlarining to'liq huquqiy tartibga solinmaganligi hamda bu sohada amaldagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qiluvchi vakolatli organlar tomonidan belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilmasligi obyektiv omillar sifatida xizmat qilmoqda.

Amaldagi qonunchilikda sudxo'rlik mustaqil tarkibli jinoyat etib belgilanmagan bo'lsa-da, lekin ijtimoiy xavfi yuqori hodisa sifatida iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik sabablar ta'sirida mavjud hamda huquqiy bo'shliqlar va institutsional nazoratlarning yetarli emasligi oqibatida aksariyat holatlarda tovlamachilik va zo'ravonlik jinoyatlarining boshlang'ich bosqichi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jamiyatda sudxo'rlikning oldini olish, birinchi navbatda, jismoniy shaxslar o'rtasida tuzilgan qarz shartnomalarida foiz stavkalari qonun bilan belgilangan eng yuqori chegaradan oshirilmassligini, shuningdek eng yuqori foiz miqdori iqtisodiy asoslanmagan bo'lsa, shartnoma shartlari haqiqiy emasligini qonunda aniq belgilash maqsadga muvofiq.

Shuni alohida qayd etish joizki, fuqarolik qonunchiligida foiz cheklovlari sudxo'rlikning iqtisodiy omillarini kamaytirs, mazkur qilmishlar uchun ma'muriy javobgarlik uning norasmiy shakllarini oldini olishga xizmat qilsa, jinoyat qonunchiligida javobgarlikni belgilash zo'ravonlik va tovlamachilikni qat'iy cheklash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sudxorlik-uz/>; Ribo yoxud sudxo'rlik. <https://fitrat.uz/archives/9486>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-yanvardagi videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasidan.
3. Кузнецова Н.Ф. Преступления в сфере экономической деятельности. – М., 2010
4. Кудрявцев В.Н. Общая теория преступлений. – М., 2008
5. Долгова А.И. Криминология. – М., 2016
6. Irisbekov U. Tovlamachilik jinoyatlarining oldini olishni takomillashtirish: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... dis. – T., 2025.
7. https://www.povertyactionlab.org/sites/default/files/research-paper/working-paper_6342_Are-High-Interest-Loans-Predatory_US_June2020.pdf?utm_source=chatgpt.com
8. https://www.um.edu.mt/library/oar/bitstream/123456789/112256/1/Usury.pdf?utm_source=chatgpt.com
9. https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiopatiya-sovremennogo-rossiyskogo-rostovschichestva?utm_source=chatgpt.com
10. https://gnpje.sgh.waw.pl/Regulation-of-Usury-Justification-Consequences-and-Some-Lessons-from-Polish-Experience%2C149195%2C0%2C2.html?utm_source=chatgpt.com
11. https://naukovedenie.ru/PDF/25EVN315.pdf?utm_source=chatgpt.com
12. https://www.povertyactionlab.org/sites/default/files/research-paper/working-paper_6342_Are-High-Interest-Loans-Predatory_US_June2020.pdf?utm_source=chatgpt.com
13. https://www.um.edu.mt/library/oar/bitstream/123456789/112256/1/Usury.pdf?utm_source=chatgpt.com
14. Huquq-tartibot idoralarining faoliyati tanqidiy ko'rib chiqilib, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida yangi vazifalar belgilab berildi. <https://president.uz/uz/lists/view/8882>
15. <https://daryo.uz/2024/02/03/toshkentda-foiz-evaziga-pul-berib-qarzdorlarning-uy-joylarini-tortib-olish-bilan-shugullangan-shaxs-ushlandi>
16. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Ikkinchi qism. <https://lex.uz/docs/180552>
17. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/4674902>
18. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida" 11-son qarori. <https://lex.uz/docs/1443984>
19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 6-son qaroriga 1-ILOVA <https://www.lex.uz/acts/1727490>